



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M A KTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 60 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	

FRAZEOLOGIZMLARNI O'RGATISHDA MATN ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS MODEL: XORIJIY TIL O'RGANUVCHILAR TAJRIBASI

Jumayeva Sadbarg Mirolimovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti

Ingliz tili amaliy fanlar 3 kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklarni xorijiy til o'rganuvchilarga o'rgatishda matnga asoslangan integratsiyalashgan dars modelining samaradorligi empirik tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida B1-darajadagi xorijiy til o'rganuvchilardan tashkil topgan eksperimental va nazorat guruhlarida frazeologizmlarni kontekst asosida o'zlashtirishga qaratilgan dars modeli sinovdan o'tkazildi. Model konstruktivistik yondashuv asosida ishlab chiqilib, o'quvchilarda frazeologik birliklarni kontekstda tahlil qilish, semantik jihatdan anglash va kommunikativ nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, matnga asoslangan integratsiyalashgan model an'anaviy yodlash usullariga nisbatan samaraliroq bo'lib, til o'rganuvchilarning frazeologik kompetensiyasini rivojlantirishga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, matnga asoslangan yondashuv, integratsiyalashgan dars modeli, xorijiy til o'rganuvchilar, til kompetensiyasi, konstruktivizm, kontekstual o'qitish, frazeologik kompetensiya.

Abstract: This article empirically analyzes the effectiveness of a text-based integrated lesson model in teaching phraseological units to foreign language learners. During the study, an experimental and a control group consisting of B1-level learners participated in lessons focused on acquiring phraseological units in context. The model was designed within a constructivist approach and contributed to the development of learners' skills in analyzing phraseological units in context, understanding them semantically, and applying them appropriately in communicative speech. The findings indicate that the text-based integrated model was significantly more effective than traditional rote-learning methods and had a positive impact on the development of learners' phraseological competence.

Key words: phraseological units, text-based approach, integrated lesson model, foreign language learners, language competence, constructivism, contextual teaching, phraseological competence.

Аннотация: В данной статье эмпирически анализируется эффективность интегрированной модели урока на основе текста при обучении фразеологическим единицам иностранных студентов. В ходе исследования была проведена работа с экспериментальной и контрольной группами, состоящими из изучающих иностранный язык на уровне B1. Модель, разработанная на основе конструктивистского подхода, способствовала формированию у обучающихся навыков анализа фразеологических единиц в контексте, их семантического понимания и правильного применения в коммуникативной речи. Результаты исследования показали, что интегрированная модель на основе текста оказалась значительно более эффективной по сравнению с традиционными методами заучивания и оказала положительное влияние на развитие фразеологической компетенции обучающихся.

Ключевые слова: фразеологические единицы, текст-ориентированный подход, интегрированная модель урока, изучающие иностранный язык, языковая компетенция, конструктивизм, контекстное обучение, фразеологическая компетенция.

KIRISH

So'nggi yillarda xorijiy til o'qitishda integratsiyalashgan yondashuvlar, ayniqsa matnga asoslangan uslublar, samaradorligi bilan til o'rgatuvchilar e'tiborini tortmoqda. Bu uslub, xususan, frazeologik birliklarni o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar – tilning boyligi, madaniy va konnotativ ma'nolarni ifodalovchi vositalar bo'lib, ularni samarali o'rgatish xorijiy til o'rganuvchilarning til kompetensiyasini yuqori darajada shakllantirishga xizmat qiladi.

Matnga asoslangan yondashuv frazeologik birliklarni kontekstda o'rganish imkonini beradi. Bu esa ularning semantik ma'nosini, uslubiy yukini hamda qo'llanilish xususiyatlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Ushbu maqolada frazeologik birliklarni o'rgatishda matnga asoslangan integratsiyalashgan dars modeli ishlab chiqilib, xorijiy til o'rganuvchilar guruhi misolida amaliyotda sinovdan o'tkazildi.



Ishtirokchilar

Tadqiqotda Toshkentdagi til markazlaridan birida ta'lim olayotgan 20 nafar B1-darajadagi xorijiy til o'rganuvchilar (18–22 yosh oralig'ida) ishtirok etdi.

Tadqiqot dizayni

Tadqiqot eksperimental dizayn asosida olib borildi. Talabalarga frazeologik birliklar ikki xil uslubda o'rgatildi:

- Eksperimental guruh – matnga asoslangan integratsiyalashgan dars modeli asosida;
- Nazorat guruhi – an'anaviy ro'yxat va tarjima asosida.

O'quv materiallari

Frazeologizmlar ingliz tilidagi qisqa hikoya va maqolalar asosida tanlanib, "daily routines", "emotions" va "social interaction" mavzulari doirasida o'rgatildi.

Dars modeli

Integratsiyalashgan dars modeli frazeologik birliklarni samarali o'rgatish maqsadida matnga asoslangan yondashuv tamoyillari asosida ishlab chiqildi. Ushbu model konstruktivistik ta'lim nazariyasiga tayangan bo'lib, bilim o'quvchining faol ishtiroki, kontekstual tushunish va muloqot orqali shakllanishini nazarda tutadi. Dars quyidagi ketma-ket bosqichlarda tashkil etildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Matn bilan tanishish va global tushunishni shakllantirish

Dars jarayoni autentik yoki yarim autentik matn (qisqa hikoya, maqola yoki dialog)ni tinglash va/yoki o'qish orqali boshlanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar matnning asosiy g'oyasini tushunish, mavzuni anglash va kontekstga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Umumiy tushunish frazeologik birliklarni kontekstda idrok etish uchun tayanch vazifasini bajaradi.

Frazeologik birliklarni aniqlash va kontekstual tahlil qilish

Talabalardan matn ichidagi frazeologik birliklarni ajratib ko'rsatish so'raladi. Bu bosqichda o'qituvchi ularning ma'nosini tushunishga yordam beradi: birliklarning leksik tarkibi, konnotativ va madaniy yuklamasi hamda grammatik strukturalari izohlanadi. Har bir frazeologizmdagi metaforik yoki idiomatik ma'no kontekst asosida tahlil qilinadi.

Ma'no talqini va funksional muhokama

Frazeologik birliklarning sinonimik va antonimik muqobillari, ularning stilistik registrdagi o'rni (ramziy, rasmiy, so'zlashuv uslubi va boshqalar), shuningdek madaniy konnotatsiyalari muhokama qilinadi. O'qituvchi va talabalar ushbu birliklarning nutqdagi qo'llanilish usullarini baholab, interaktiv muhokamalar orqali chuqurroq tushunishga erishadilar.

Qo'llanma bosqichi: kommunikativ va reflektiv faoliyat

Yakuniy bosqichda talabalar o'rganilgan frazeologik birliklarni dialog tuzish, rol o'ynash, yozma insho, topshiriq yoki munozarada qo'llash orqali faol kommunikativ vazifalarda mustahkamlaydilar. Ushbu faoliyatlar orqali til birliklari passiv bilimdan faol nutqiy ko'nikmaga aylanadi. Bundan tashqari, talabalar frazeologizmlarni shaxsiy kontekstga bog'lab, ularni reflektiv tarzda qayta ishlaydilar.

Baholash

Tadqiqot boshida va yakunida pre-test va post-testlar o'tkazildi. Qo'shimcha ravishda talabalar bilan qisqa intervyular o'tkazilib, dars modeli haqidagi fikrlari olindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi empirik yondashuv asosida olib borildi. Ma'lumotlar Toshkentdagi til markazida ta'lim olayotgan B1-darajadagi xorijiy til o'rganuvchilardan anketalar, testlar va qisqa intervyular orqali yig'ildi. Frazeologik birliklarni o'zlashtirish jarayonini o'lchash uchun tadqiqot boshida pre-test va yakunida post-test o'tkazildi, bunda talabalar kontekst asosida frazeologizmlarni aniqlash, semantik ma'nosini anglash va nutqda qo'llash bo'yicha baholandi. Shuningdek, o'quvchilarning dars modeli haqidagi shaxsiy fikrlarini aniqlash maqsadida intervyular tashkil etildi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib,

eksperimental va nazorat guruhlari ko'rsatkichlari solishtirildi hamda matnga asoslangan modelning samaradorligi aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: Pre-test va post-test natijalari

Guruh	Pre-test (o'rtacha ball)	Post-test (o'rtacha ball)
Eksperimental	56%	88%
Nazorat	58%	72%

Eksperimental guruhda o'rganilgan frazeologizmlarning kontekstda to'g'ri ishlatilishi va eslab qolish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Talabalar frazeologik birliklarni qo'llashda erkinlik va aniqlikni namoyon etdilar.

Intervyu natijalari

- Talabalarining 90% matn asosida o'rganishni "qiziqarli" va "real holatlarga yaqin" deb baholadi.
- Ba'zi talabalar ilgari yodlab o'rgangan iboralarni matn ichida uchratish orqali ularning ma'nosini to'liq tushunganini ta'kidladilar.

Natijalar tahlili

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, matnga asoslangan integratsiyalashgan dars modeli xorijiy til o'rganuvchilarda frazeologik birliklarni o'zlashtirish jarayonini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. An'anaviy yodlash va tarjima asosidagi yondashuvlardan farqli o'laroq, matnga asoslangan metod frazeologizmlarning semantik, pragmatik va stilistik jihatlarini kontekstual asosda idrok etishga imkon yaratadi.

Bu holat Vygotsky (1978) tomonidan ilgari surilgan sotsiokultural ta'lim nazariyasiga muvofiq, til o'rganish ijtimoiy muhit va madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Modelning samaradorligi multimodal o'quv faoliyatiga tayanilganligida namoyon bo'ladi. Ya'ni, matnni o'qish (vizual kanallar), matn asosida og'zaki muloqotga kirishish (audio-verbal kanallar), yozma topshiriqlarni bajarish va aks ettirish (kinestetik hamda kognitiv kanallar) orqali tilning barcha asosiy ko'nikmalari (receptive va productive skills) uyg'un shaklda rivojlantirildi.

Shu bilan birga, frazeologizmlarning konnotativ va kulturologik jihatlarini muhokama qilish orqali o'quvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya shakllanishiga erishildi. Bundan tashqari, talabalar o'z nutqida frazeologizmlarni erkin va kontekstga mos ravishda qo'llay boshlaganligi ularning metalingvistik sezgirlikni oshganidan dalolat beradi. Bu esa tilni faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarni ifodalovchi tizim sifatida qabul qilishni mustahkamladi.

Xususan, frazeologik birliklarning metaforik mohiyatini anglash talabalarning kognitiv tilshunoslik doirasidagi tasnif va tushunchalarini kengaytirdi. Mazkur model, shuningdek, talabalarning ijodiy fikrlash va reflektiv qobiliyatlarini rivojlantirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Frazeologizmlarni real nutqiy vaziyatlarda qo'llash orqali talabalar o'z shaxsiy tajribasini boyitdilar, bu esa ularning individuallashtirilgan o'rganish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qildi. Ushbu jarayon Dewey (1933) ta'kidlagan reflektiv ta'lim prinsiplariga muvofiq ravishda o'quvchi subyektivligini ta'lim jarayonining markaziga olib chiqdi.

Shunday qilib, matnga asoslangan integratsiyalashgan model frazeologik birliklarning notiqiy va kognitiv rivojlanishdagi rolini kuchaytirish barobarida, o'rganuvchini til o'zlashtirish jarayoniga faol subyekt sifatida jalb etadi. Bu esa zamonaviy til o'qitish metodologiyasining kommunikativ, madaniy va psixolingvistik komponentlarini uyg'unlashtirish zaruratini yanada dolzarb etadi.

Xulosa natijalaridan kelib chiqadigan tavsiyalar:

- Matnga asoslangan topshiriqlarga ustuvorlik berish.** Frazeologik birliklarni o'rganishda autentik va yarim autentik matnlar asosida tuzilgan topshiriqlar til o'rganish jarayonini tabiiy, kontekstual va integrativ xususiyatga ega qiladi. Bu til birliklarining idiomatik xususiyatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.
- Frazeologizmlarning madaniy va stilistik jihatlarini tizimli muhokama qilish.** Har bir frazeologik birlik ma'lum bir madaniy konnotatsiyaga ega bo'lgani bois, ularni madaniyatlararo nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali o'rganuvchilarda pragmatik kompetensiya shakllantiriladi.
- Til o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqish.** Frazeologik birliklarni o'rgatishga qaratilgan, turli darajadagi o'rganuvchilar uchun moslashtirilgan metodik qo'llanmalar yaratish dars jarayonini ilmiy asoslangan va tizimli yo'lga qo'yishga imkon beradi.



4. **O'rganuvchining reflektiv va ijodiy faoliyatini rag'batlantirish.** Talabalarni frazeologik birliklar bilan ishlash jarayoniga faol jalb etish, ularni mustaqil fikr bildirish va ijodiy ishlashga yo'naltirish, til o'zlashtirish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Umumiy xulosa

Frazeologizmlarni matnga asoslangan, kontekstual va kommunikativ yondashuv orqali o'rgatish zamonaviy til o'qitish metodologiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslanadi. Bu esa til o'rganish jarayonini faoliyatga asoslangan, madaniyatlararo muloqotga yo'naltirilgan va til birliklarini funksional qo'llashga tayyorlovchi tizimga aylantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda xorijiy til o'rganuvchilar uchun frazeologizmlarni o'zlashtirish jarayonida matnga asoslangan integratsiyalashgan dars modelining samaradorligi nazariy va empirik jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy yodlashga tayangan metodlar bilan taqqoslaganda, matnga asoslangan model o'quvchilarda frazeologik kompetensiyani shakllantirishda yuqori natija berdi.

Modelning asosiy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ldi:

- frazeologik birliklarning semantik anglanishi va kontekstual qo'llanishini kuchaytirish;
- kommunikativ nutq faoliyatida frazeologizmlarni tabiiy va to'g'ri qo'llash imkoniyatini yaratish;
- konstruktivistik yondashuv asosida o'quvchining mustaqil tahlil, izlanish va qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- frazeologizmlarni o'zlashtirishda motivatsiya va madaniy anglashni oshirish.

Shunday qilib, matnga asoslangan integratsiyalashgan dars modeli xorijiy til o'rganuvchilar uchun samarali pedagogik texnologiya sifatida e'tirof etilishi mumkin. U nafaqat frazeologik birliklarni o'zlashtirish, balki ularni nutqiy kompetensiyaning faol komponentiga aylantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ushbu modelni xorijiy til metodikasi amaliyotida keng qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Littlemore, J., & Low, G. (2006). *Figurative Thinking and Foreign Language Learning*. Basingstoke: Palgrave Macmillan. – Springer Link
2. Boers, F., & Lindstromberg, S. (2008). *Cognitive Linguistic Approaches to Teaching Vocabulary and Phraseology*. Berlin: Mouton de Gruyter. – De Gruyter
3. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2002). *English Idioms in Use*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Isakulova, B. X. (2025). Ta'lim sifatini oshirishda ko'p tillilik va til bilishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 47(4), 125–127. <https://scientific-jl.com/tal/article/view/22655>
5. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. GOLDEN BRAIN, 1(11), 234–239. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
6. Isakulova, B. (2024). Building leadership abilities through language learning in education. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 2(12), 218–225.
7. Rashidovna, B. Z., & Prasetyo, A. (2025). The representation of the names of Uzbek national dishes in works of art and their translation. *Multidisciplinary Journal of Science...* 2025mjstjournal.com
8. Rashidovna, B. Z. (2024). Names of dishes adapted from English, Russian, and Uzbek languages. *Web of Teachers: Inderscience Research*. webofjournals.com

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.